



## *Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

### **ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

*2019-yil yanvar- sentyabr*

#### **Moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 4060,5 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 203,9 % ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag‘lar hisobiga to‘g’ri keldi, 3140,1 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 77,3 % ini, korxona va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan esa 920,4 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 22,7 % ini o‘zlashtirildi.



## *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

<b>Asosiy kapitalga investitsiyalar</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>O’sish sur’ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan % da</b>
<b>Jami</b>	<b>4060,5</b>	<b>203,9</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan,</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>1178,5</b>	<b>315,7</b>	<b>29,0</b>
Respublika byudjeti	462,0	206,2	11,4
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari	631,4	571,7	15,5
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	23,5	-	0,6
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	61,6	201,5	1,5
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>2882,0</b>	<b>178,2</b>	<b>71,0</b>
Xorijiy investitsiya va O‘zbekiston kafolati ostida bo‘lмаган xorijiy kreditlar	1192,2	1435,4	29,4
Aholi mablag'i	180,8	138,5	4,5
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	769,4	92,8	18,9
Korxona mablag'lari	739,6	128,9	18,2

Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo‘lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbaalari hisobidan 1178,5 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 29,0 % ini hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2882,0 mlrd. so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 71,0 % ini o‘zlashtirildi.

2019-yil  
yanvar-  
sentyabr

## *Asosiy kapitalga investitsiyalar*

### **Markazlashgan investitsiyalar**

**Respublika  
byudjeti-  
462,0 mlrd.  
so'm**

**O'zbekiston  
Respublikasi  
kafolati  
ostidagi chet el  
kreditlari-  
631,4 mlrd.  
so'm**

**Suv ta'minoti  
va  
kanalizatsiya  
tizimlarini  
rivojlantirish  
jamg'armasi -  
61,6 mlrd.  
so'm**

**Tiklanish va  
taraqqiyot  
fondi  
mablag'lari-  
23,5 mlrd.  
so'm**

### **Markazlashmagan investitsiyalar**

**Xorijiy  
investitsiya va  
O'zbekiston  
kafolati ostida  
bo'limgan xorijiy  
kreditlar-  
1192,2 mlrd.  
so'm**


**Aholi  
mablag'i-  
180,8 mlrd.  
so'm**

**Tijorat banklari  
kreditlari va  
boshqa qarz  
mablag'lari-  
769,4 mlrd.  
so'm**

**Korxona  
mablag'lari-  
739,6 mlrd.  
so'm**

## **Markazlashgan moliyalashtirish manbaalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

(jami hajmdagi ulushi, % da)




Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi 53,6 % O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga va Respublika byudjeti tomonidan jami markazlashgan investitsiyalar ulushidagi hajmi 39,2 % ga to'g'ri keldi.

Suv tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning qishloq xo'jaligida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga: kollektorlarni tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari va meliorativ tik quduqlarni rekonstruksiya qilish kabi loyihalarni o'z ichiga oladi.

**Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga investitsiyalar  
(jamiga nisbatan % da)**



Xorijiy va boshqa investitsiyalarni hisobidan o'zlashirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 41,4 % ini tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: to'qimachilik maxsulolarini ishlab chiqarish, xom teriga ishlov berish , zamonaviy issiqxonalar qurish va boshqa investitsiya loyihalari.


Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 26,7 % ini tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari tashkil etadi. Bu investitsiya va kreditlar korxona va tashkilotlarning o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadida amalga oshirishlari bilan bog'liq.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha hududlar kesimida Sirdaryo tumani, Guliston va Shirin shaharlar, Sirdaryo tumani yuqori o‘sish sur’atlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari  
% da**




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Shirin, Yangiyer, Guliston shaharlari va Guliston, Sardoba, Boyovut, Xovos, Mirzaobod va Sirdaryo tumanlarida kuzatildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi**

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 1566,4 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashinalar, asbob-uskunalarga investitsiyalar 2285,3 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 208,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariiga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa asosiy qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan yirik quvvatlariga investitsiyalar bilan bog'liq.

### Hududlar kesimida texnologik tarkibi (%)



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida ishlab chiqarish sanoati qilmoqda 1469,4 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 36,2 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan faoliyat turi quyidagi: to'qimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish sanoati 478,5 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 11,8 %).

Qishloq xo'jaligida - 666,1 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 16,4 % ni tashkil etdi.

Turar joy qurilishiga 407,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 10,0 % o'zlashtirilgan.


Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.



2019-yil  
yanvar-  
sentyabr

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (% da)




## **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritlgan xorijiy investitsiya va kreditlar**

Joriy davrda 1823,6 mldr. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 44,9 % xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Bu Shirin shahrida, va Xovos, Sardoba, Guliston tumanlarida va Yangiyer va Guliston shaharlarida yuqori investitsiyalar hajmiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihasi: Sirdaryo viloyatining Boyovut va Xovos tumanlarini ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini yaxshilash.



## **Obyektlarni ishga tushirish**


Ijtimoiy sohada joriy davrda umumiyl maydoni 152,4 ming kv. m. bo'lgan 1228 ta turar joy ob'yekti qurilib ishga tushirilgan bo'lib, ulardan umumiyl maydoni 80,8 ming kv. m. bo'lgan 633 tasi qishloq joylarda joylashgan.

Namunaviy loyihalar asosida umumiyl maydoni 41,1 ming kv. m 322 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.



Turar joy qurilishida jami Viloyatda ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo'yicha Guliston shahar, Guliston tumani yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Shirin shahar, Oqoltin tumanida eng kam turar joylar ishga tushirildi.


## **Ishga tushirilgan turar joylar**



Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan yakka tartibdagi uy joylar qurilishi bo'yicha olib borilayotgan davlat dasturlarining bajarilishi hamda aholining o'zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog'liq.

### **Ishga tushirilgan turar joylar**

(jamiga nisbatan % da)



*Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Investitsiyalar va  
qurilish statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul: G.Qarshiyev*

*Aloqa telefoni: (0371)2308627*